

Jamoatchilikni xabardor qilish va hisobdorlikni ta‘minlash bo‘yicha
TAKLIFLAR

Mazkur takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2024-yil 24-maydagi PF-154-son Farmoni** bilan tasdiqlangan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini baholash tizimidagi **8-baholash indikatori 4-baholash mezon**ida ishlab chiqilgan.

Davlat organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, shuningdek jamoatchilik oldida hisobdorlikni kuchaytirish bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Axborotlashtirish, telekommunikatsiyalar va raqamli texnologiyalar sohalarida faoliyat yurituvchi davlat organlari uchun jamoatchilik bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, sohaga oid qarorlar va tashabbuslar yuzasidan jamoatchilikni muntazam xabardor qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan Jamoatchilik kengashi faoliyati doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- Jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta‘minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda davlat organi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirgan ishlari yuzasidan **tahliliy ma‘lumotlarni muntazam ravishda e‘lon qilib borish**;
- Davlat dasturlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha **mas‘ul tarkibiy bo‘linmalar hisobotlarini Jamoatchilik kengashi yig‘ilishlarida eshitish hamda ularning natijalarini jamoatchilikka yetkazish**;
- Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida faoliyat yurituvchi **xorijiy davlat organlari va nazorat tuzilmalari tajribasini o‘rganish**, ushbu tajribalar asosida sohada nazorat tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;
- Sohada ko‘rsatilayotgan **telekommunikatsiya xizmatlari sifati, raqamli xizmatlar barqarorligi hamda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlar tahlilini jamoatchilikka ochiq e‘lon qilib borish**;
- Fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda sohaga oid mutaxassislar ishtirokida **raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi va xizmatlar sifati masalalariga bag‘ishlangan davra suhbatlari va ochiq muhokamalar tashkil etish**;
- Internet tarmog‘ida **zararli va taqiqlangan axborotlardan bolalarni himoya qilish, raqamli madaniyatni oshirish hamda axborot xavfsizligi bo‘yicha jamoatchilik uchun tushuntirish va targ‘ibot ishlarini kuchaytirish**.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish davlat organi faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni mustahkamlashga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga hamda axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zkomnazorat” Inspeksiyasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi